

FARG‘ONA DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTINING TASHKIL TOPISH TARIXI

*Andijon davlat chet tillari instituti “Ijtimoiy gumanitar fanlar, pedagogika va psixologiya” kafedra o‘qituvchisi Najimidinova Shoxsanamxon, “Tarjima nazariyasi va amaliyoti” yo‘nalishi 1-bosqich talabasi
Murtozaqulova Nafosatxon Akmaljon qizi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Farg‘ona davlat pedagogika institutining asos solinishidan boshlab, uning rivojlanish jarayonlari, ilmiy, pedagogik va madaniy sohalaridagi yutuqlari, shuningdek, o‘qituvchi va talaba salohiyatining o‘sishi haqida so‘z boradi. Farg‘ona davlat pedagogika instituti o‘zining bugungi kunda o‘ziga xos o‘rni, o‘qituvchilari va talabalari orqali ta’lim tizimida katta o‘zgarishlarga sabab bo‘lgan. Maqolada ushbu o‘zgarishlarning ijtimoiy va madaniy ahamiyati hamda institutning o‘ziga xos xususiyatlari to‘liq yoritilgan.

Kalit so‘z: kollegiya, agropedagogika, biotexnika, agrokimyo, tuproqshunoslik, innovatsion uslublar, gimnaziya, renessans, tendensiya

Insoniyat tarixida bilim va ilm-fan, madaniyat va jamiyat rivoji doimo markaziy o‘rinda turib kelgan. Ular o‘z navbatida, muhim institutlarning paydo bo‘lishi va shakllanishiga turtki bo‘lgan. Institutlar jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy tuzilishini tartibga soluvchi va boshqaruvchi muassasalar sifatida alohida ahamiyatga ega. Ularning tarixi esa, nafaqat o‘sha davrning ijtimoiy hayoti, balki keng ma’noda butun insoniyat taraqqiyotining bir qismi sifatida yoritilishi lozim.

Bugungi kunda institutlar nafaqat akademik, balki siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy tizimlarning barcha sohalarini o‘z ichiga oladi. Shuningdek, har bir davrda institutlar o‘zining aniq funksiyalari va vazifalariga ega bo‘lib, jamiyatning har tomonlama rivojlanishiga xizmat qiladi.

Oliy ta’lim dargohi bo‘lmish universitetlar o‘z mohiyatiga ko‘ra har bir millatning madaniy-ma’naviy taraqqiyotini aks ettiruvchi ko‘zgu hisoblanadi. Ma’lumki, muayyan ijtimoiy-iqtisodiy bosqichga o‘tgach tarixiy zaruriyat tufayli bilimgothlar har bir millat taqdirida oddiy emas, balki hayotiy ehtiyojga aylanadi.

Muhtaram Prezidentimiz aytganlaridek: “Milliy tarixni milliy ruh bilan yaratish kerak. Aks holda uning tarbiyaviy ta’siri bo‘lmaydi. Biz yoshlarimizni tarixdan saboq olish,

xulosa chiqarishga o'rgatishimiz, ularni tarix ilmi, tarixiy tafakkur bilan qurollantirishimiz zarur"¹

Yurtimiz o'tmishiga nazar solsak, olamga dong taratgan qanchadan qancha madrasa, dorilfununlarimiz, zabardast olimlaru fozillarimiz jahon fani va madaniyati rivojiga salmoqli hissa qo'shganligining guvohi bo'lamiz, dilimiz g'ururga to'ladi.²

Bugungi kunda o'zining ilmiy salohiyati, o'quv-tarbiyaviy, ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishlardagi samarali tajribasi, mustahkam xalqaro hamkorlik tendensiyalari, professor-o'qituvchilari, talaba-yoshlari erishayotgan yutuq va muvaffaqiyatlari bilan yurtimizdagi yetakchi oliy o'quv yurtlari safidan munosib o'rin egallab kelayotgan Farg'ona davlat universiteti mamlakatimizda Uchinchi Renessansni bunyod etishning tayanch ustunlaridan biri bo'lishdek ulug'vor maqsad yo'lida dadil izlanmoqda. E'tirof etish kerakki, qariyb 30 ming nafarga yaqin o'g'il-qizlar ta'lim olayotgan oliygohning bugungi kuni, oldinga qo'ygan reja va maqsadlari ham Yangi O'zbekistonning imkoniyatlari, yangi avlod kadrlarini tarbiyalashning yangi prinsiplari bilan hamohangdir.

Farg'ona davlat universitetining tashkil etilishi viloyat va butun vodiyning ijtimoiy va madaniy hayotida muhim voqea bo'ldi. Universitet maqomidagi oliy o'quv yurtining vujudga kelishi nafaqat yuqori malakali kadrlar tayyorlash, balki mintaqada ilm-fan taraqqiyoti uchun ham yangi ufqlar ochib berdi. Farg'onada universitetning ochilishi bu yerda yangi kadrlar va tadqiqotlar markazlarini tashkil etish, keng ko'lamda ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish, fan va texnika yutuqlarini ishlab chiqarishga joriy etish hamda mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini jadallashtirishga munosib hissa qo'sha boshladi.

"Moziyga qaytib ish ko'rish – xayrli", - deydilar. Farg'ona davlat universiteti o'zining shonli boy tarixiga ega. Bu tarix bevosita oldingi Farg'ona davlat pedagogika instituti faoliyati bilan uzviy bog'liq.

Farg'ona oliy pedagogika instituti tashkil topganida uning tarkibida kolxozchi yoshlar fakulteti va ijtimoiy-iqtisodiy hamda tabiyot-biologiya bo'limlari bo'lgan. Dastlab institutga atigi 120 nafar talaba qabul qilindi. Farg'ona oliy pedagogika institutining birinchi direktori etib professor A.M.Krasnousov tayinlandi. Institut zimmasiga dastlab kolxozchi yoshlar maktablari uchun oliy malakali o'qituvchi kadrlar tayyorlash va maktablarga uslubiy xizmat ko'rsatish vazifasi yuklatilgan.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 19-yanvar kuni ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari bo'yicha videoselektor yig'ilishi, 2021-yil

² ТошДУ илм ва маърифат маскани. –Тошкент: Университет, 1995

Dastlab institutga faqat bitta bino – 1902 yilda G.M.Svarichevskiy loyihasi asosida qurilgan sobiq o'g'il bolalar gimnaziyasi binosi ajratilganligi sababli o'quv xonalari, talabalar uchun turar-joy binolari yetishmasdi. Institut vodiya yagona oliy o'quv yurti bo'lganligi bois, bu yerda nafaqat maorif, balki xalq xo'jaligining boshqa sohalari, jumladan, qishloq xo'jaligi uchun ham kadrlar tayyorlash zarur deb topildi. SHuning uchun ham, O'zbekiston maorif xalq komissarligi kollegiyasining 1931-yil 13-yanvarda qabul qilgan qaroriga binoan, institutda agronomiya bo'limi ochildi. Farg'ona oliy pedagogika institutining nomi «Agronomiya-pedagogika instituti» etib o'zgartirildi. Institut direktori etib B.Qoriev tayinlandi. Agropedagogika instituti tarkibida til va adabiyot, fizika-matematika, kimyo va biologiya hamda agropedagogika bo'limlari tashkil etildi. Institutning vazifalari bilan bevosita bog'liq bo'lmagan qo'shimcha ikkita bo'lim – maktabgacha tarbiya va maktabdan tashqari tarbiya bo'limlari ham faoliyat ko'rsata boshladi.

Ammo tez orada institutning nomi va tarkibi yana o'zgartirildi. Bu hol mamlakatda umumiy boshlang'ich ta'limni joriy etish bilan bog'liq edi. Maktablar yoshlarga chuqur bilim berishi, ularni texnikumlar va oliy o'quv yurtlariga kirishga tayyorlashi lozim edi. Ya'ni maktab, o'rta maxsus va oliy o'quv yurtlarida ta'limning davomiyligi va uzluksizligini ta'minlash zaruriyati paydo bo'ldi. SHu munosabat bilan, 1932-yilning yanvaridan boshlab institutda kolxozchi yoshlar maktablari uchun fanlar turkumidan dars beruvchi o'qituvchilarni emas, balki umumta'lim maktablari, texnikumlar hamda ishchi fakultetlari uchun aniq fanlardan dars bera oladigan o'qituvchi kadrlar tayyorlashga o'tildi.

SHuningdek, institut tarkibiga o'zgartirishlar kiritildi: agropedagogika bo'limi yopildi, fizika-matematika va kimyo-biologiya bo'limlari esa alohida fanlarga ixtisoslashgan fakultetlarga bo'lindi. Natijada institutda 6 ta fakultet tashkil etildi. Bular til va adabiyot, matematika, fizika, kimyo, biologiya va tarix fakultetlari edi. Institutning tarkibi va vazifalariga mos ravishda uning nomi o'zgartirilib, O'zbekiston hukumatining qaroriga muvofiq 1991-yil 1-martda Farg'ona pedagogika instituti (1930-yil 1-mayda asos solingan) negizida Farg'ona davlat universiteti tashkil etilgan. Farg'ona pedagogika institutiga universitet maqomi berilgandan so'ng oliy o'quv yurtida tarkibiy o'zgarishlar ro'y berdi.

Universitetning birinchi rektori professor M.Qoraboev rahbarligida, rektoratning sa'y-harakatlari bilan bir qancha yangi mutaxassisliklar ochildi, yangi kafedralar va fakultetlar tashkil etildi. 1991-1992-o'quv yilidan boshlab Farg'ona davlat universitetida amaliy sotsiologiya, psixologiya, huquqshunoslik, tabiat resurslaridan oqilona foydalanish va atrof-muhitni muhofaza etish, madaniy oqartuv ishlari va badiiy havaskorlikni tashkil etish, iqtisod va boshqaruv, iqtisod va ijtimoiy rejalashtirish,

tashqi iqtisodiy munosabatlar, biotexnika va tibbiy apparatlar, agrokimyo va tuproqshunoslik, sharqshunoslik-afrikashunoslik, sharq tillari (arab va fors tillari) singari yangi mutaxassisliklar bo'yicha kadrlar tayyorlana boshlandi. Universitet tashkil etilgandan so'ng rektorat, oliygohning ilmiy Kengashi, professor-o'qituvchilar jamoasi birinchi navbatda o'quv-tarbiya ishlarini tubdan yaxshilashni o'z oldiga asosiy maqsad qilib qo'yidilar. Buning uchun universitetning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, o'quv jarayonining samaradorligini oshirish, ma'ruzalar, amaliy mashg'ulotlar va o'quv amaliyoti sifatini yaxshilash, professor-o'qituvchilarni tarkibini takomillashtirish va ularni malakasini muttasil oshirib borish zarur edi. Mazkur mas'uliyatli jarayonni boshqarishda o'quv ishlari bo'yicha prorektorning alohida o'rni bor. Mustaqillik yillarida soha prorektorlarining faoliyati natijasida o'quv jarayonini tizimli tashkil etish, unga zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini qo'llash, ta'lim sifati va samaradorligin oshirish bo'yicha muayyan yutuqlar qo'lga kiritildi. Amalga oshirilgan bu ijobiy ishlar natijasi o'laroq universitetda fan doktorlari va nomzodlarini tayyorlash borasida ma'lum yutuqlarga erishildi. Jumladan, 1991-yilda 1 ta doktorlik dissertatsiyasi yoqlangan bo'lsa, 1992-1995-yillar davomida 15 ta doktorlik va 40 ga yaqin nomzodlik dissertatsiyalari himoya qilindi. Istiqloq davrida universitet professor-o'qituvchilari nafaqat O'zbekistonning o'zida, balki chet ellarda ham malaka oshirish imkoniyatiga ega bo'ldilar. 1991-2003-yillar davomida oliy o'quv yurtining 50 dan ortiq professor o'qituvchisi, ilmiy xodimlari va aspirantlari AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya, Yaponiya, Hindiston, Singapur, Turkiya, Janubiy Koreya va Rossiya singari mamlakatlarda bo'lib, u erdagi ta'lim tizimi bilan yaqindan tanishdilar. Ayni vaqtda Farg'ona davlat universitetida professor-o'qituvchilarning o'z bilim va malakalarini doimiy ravishda oshirib borishlarini moddiy va ma'naviy jihatdan rag'batlantirishga ham doimiy e'tibor berildi. Muhtaram Prezidentimizning mamlakat yoshlari va ularning ta'lim olishi, xususan, oliy ta'lim tizimiga qaratgan yuksak e'tibori hamda yoshlarparvar islohotlari natijasida bugun oliy ta'lim tizimi milliy trend darajasiga ko'tarildi. Aytish kerakki, Farg'ona davlat universitetining xalqaro oliy ta'lim yutuqlarini o'zlashtirish va ta'lim sifatini dunyo standartlari darajasiga olib chiqishga qaratilgan sa'y-harakatlari ham yangi bosqichga olib chiqildi. Yaponiyaning Toxoku universiteti, Moskva davlat universiteti, Germaniyaning Myunster universiteti, Janubiy Koreyaning Hanguk universiteti, Qozog'istonning YevroOsiyo milliy universiteti, Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti, Xitoyning Konfutsiy instituti, SHvetsiyaning Lund universiteti singari 80 dan ortiq Yevropa va SHarqiy Osiyodagi nufuzli oliy ta'lim muassasalari bilan o'rnatilgan hamkorlik rishtalari oliy ta'limning

xalqaro yutuqlarini o'zlashtirish imkonini berish bilan birga, talabalarning xalqaro standartlar asosida bilim olishi uchun zamin yaratmoqda.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, Farg'ona davlat universiteti nafaqat ta'lim sohasida yetakchi muassasa, balki talabalarga imkoniyatlar eshigini ochadigan dargoh sifatida ham katta ahamiyatga ega. Uning tashkil topishi va rivojlanishi orqali talabalarga zamonaviy pedagogik bilimlar, ko'nikmalar va innovatsion uslublar taqdim etilmoqda. Bu universitet talabalariga nafaqat sifatli ta'lim olish imkoniyatini yaratadi, balki ularga ilmiy izlanishlar, ijodiy yondoshuvlar va kasbiy malakalarni oshirishda katta imkoniyatlar taqdim etadi. Farg'ona davlat universiteti, o'zining tarixi va an'analari bilan, bugungi kunda talabalarga kelajakda muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo'lgan bilim va tajribalarni egallashda ishonchli ko'prik vazifasini o'tamoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoev raisligida 19-yanvar kuni ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari bo'yicha videoselektor yig'ilishi, 2021-yil
2. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti TOSHKENT, 120-bet
3. ToshDU ilm va mahrifat maskani. –Toshkent: Universitet, 1995
4. “Xalq dorilfununi” gazetasi, 1918 yil, 31-may, 1-son.
5. “Universitet” gazetasi, 1918 yil, 30-may, 22-son.
6. <https://mentalaba.uz/universities/otm-haqida/fargona-davlat-universiteti>
7. <https://oliygoh.uz/oliygohlar/farg-ona-davlat-universiteti>
8. <https://fargona.uz/index.php?/site/view/news/705>
9. <https://fdu.uz/>